

**IMOM TERMIZIYNING TAFSIR BOBIDA HADISLARNING DINIY-
MA'NAVIY TARBIYADAGI O'RNI**

**THE ROLE OF HADITHS IN RELIGIOUS AND SPIRITUAL
EDUCATION IN THE TAFSIR SECTION OF IMAM AL-TIRMIDHI'S
"SUNAN"**

**РОЛЬ ХАДИСОВ В РЕЛИГИОЗНО-ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ В
РАЗДЕЛЕ ТАФСИРА «СУНАНА» ИМАМА АТ-ТИРМИЗИ**

Ahad RAYMBERDIYEV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO" kafedrasi tayanch
doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom Termiziyning "Sunan" asaridagi tafsir bobida keltirilgan hadislarning diniy-ma'naviy tarbiyadagi o'rni tahlil qilinadi. Qur'on oyatlarini izohlash jarayonida hadislarning tutgan o'rni, ularning musulmon kishining iymonini mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish hamda jamiyatda totuvlikni qaror toptirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, hadislarning shaxsiy hayot, oila va yoshlar tarbiyasidagi tarbiyaviy-axloqiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada hadislarning nafaqat diniy talqin, balki inson ma'naviy kamoloti va axloqiy barkamolligida tutgan o'rni ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Imom Termiziy, Sunan, tafsir bob, hadis, Qur'on, diniy tarbiya, ma'naviyat, axloq, jamiyat.

Abstract. This article analyzes the role of hadiths cited in the commentary (tafsir) section of Imam al-Tirmidhi's "Sunan" in religious and spiritual education. Within the scope of the study, the article highlights the significance of hadiths in explaining the Qur'anic verses, strengthening the faith of Muslims, shaping moral values, and promoting social harmony and cohesion. Furthermore, it examines the educational and ethical aspects of hadiths in personal life, family, and youth upbringing. The article demonstrates that hadiths play a crucial role not only in religious interpretation but also in the spiritual development and moral perfection of an individual.

Keywords: Imam al-Tirmidhi, Sunan, tafsir section, hadith, Qur'an, religious education, spirituality, ethics, society.

Аннотация. В данной статье анализируется роль хадисов, приведённых в разделе тафсира в «Сунане» Имама ат-Тирмизи, в религиозно-духовном воспитании. В рамках исследования освещается значение хадисов для объяснения аятов Корана, укрепления веры мусульман, формирования нравственных ценностей, а также для укрепления гармонии и согласия в обществе. Кроме того, рассматриваются воспитательные и этические аспекты хадисов в личной жизни, семье и воспитании молодежи. Статья показывает, что хадисы играют важную роль не только в религиозной интерпретации, но и в духовном развитии и моральном совершенствовании личности.

Ключевые слова: Имам ат-Тирмизи, Сунан, раздел тафсира, хадис, Коран, религиозное воспитание, духовность, этика, общество.

Kirish

Islom ilmiy merosida hadis ilmi Qur'oni Karim oyatlarini to'g'ri talqin qilish, ularning mazmun-mohiyatini kengroq anglash va hayotga tadbiq etishda eng asosiy manbalardan biri sanaladi. Bu borada yirik muhaddislar yaratgan hadis to'plamlari alohida o'rin tutadi. Shulardan biri – Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824–892)ning mashhur “Sunan” asaridir. Ushbu kitob hadis ilmining muhim manbalaridan biri bo'lib, unda fiqh, aqida, axloq va tafsir masalalari keng yoritilgan. “Sunan” asarining muhim bo'limlaridan biri – tafsir bobidir. Unda Qur'oni Karim oyatlari bilan bog'liq hadislar jamlangan bo'lib, ular nafaqat oyatlarning mazmunini ochib berishga, balki musulmon kishining diniy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Termiziy hadislarni keltirishda nafaqat isnod va matnning ishonchliligiga e'tibor bergan, balki ularning tarbiyaviy, axloqiy hamda ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini ham ko'zda tutgan.

Hadislarning diniy-ma'naviy tarbiyadagi o'rni haqida so'z borganda, ular musulmon ummatining iymonini mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish, jamiyatda tinchlik va totuvlikni qaror toptirish, shaxsiy hayotda esa halollik, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilishi alohida ta'kidlash lozim. Shu jihatdan, Imom Termiziyning tafsir bobida keltirilgan hadislarni o'rganish bugungi kunda ham nafaqat diniy ta'limda, balki yosh avlodni ma'naviy barkamollikka yetaklashda ham dolzarbdir.

Imom Termiziy o'zining mashhur “Sunan” asarida Qur'oni Karim oyatlariga sharh sifatida hadislarni keltirgan holda alohida tafsir bobini tashkil etadi. Bu bob boshqa hadis to'plamlaridan ko'plab jihatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, Termiziy Qur'on oyatlariga bevosita sharh beruvchi hadislarni jamlashga alohida e'tibor qaratgan. Masalan, oyatlarning sabab nuzullari, ularning hayotiy voqealar bilan

bog'liqligi, sahobalarning rivoyatlari orqali yoritilishi tafsir bobining ilmiy-uslubiy asosini tashkil etadi¹.

- Birinchidan, u Qur'on oyatlarini sharhlashda sahih hadislarini asosiy manba sifatida keltiradi. Bu esa tafsir bobining ishonchliligini ta'minlaydi. Shuningdek, ba'zi joylarda u hasan darajasidagi hadislarini ham kiritadi, chunki ularning mazmuni tarbiyaviy va ma'naviy jihatdan muhim hisoblangan.
- Ikkinchidan, Termiziy tafsir bobida hadislarini keltirishda ularning isnodlarini ham izohlab beradi. U hadisning sahih yoki hasanligini, ba'zan esa zaifligini qayd etib, o'quvchiga rivoyatlarning qadr-qimmatini haqida aniq tasavvur beradi. Bu uslub hadis ilmi va tafsir ilmining uyg'unlashgan namunasi sifatida qadrlanadi.
- Uchinchidan, tafsir bobida keltirilgan hadislar nafaqat Qur'on oyatlarini sharhlashga, balki musulmonlarning amaliy hayotini to'g'ri yo'naltirishga ham qaratilgan. Masalan, namoz, zakot, ro'za kabi ibodatlarga oid oyatlarning tafsiri hadislar orqali yanada aniqroq talqin etiladi. Bu esa hadislarining diniy-ma'naviy tarbiyadagi o'rnini yanada kuchaytiradi.
- To'rtinchidan, Termiziy tafsir bobida hadislarini keltirish jarayonida ularning axloqiy-ruhiy mazmuniga ham katta e'tibor qaratadi. Qur'on oyatlarida kelgan sabr, taqvo, adolat, mehr-oqibat kabi fazilatlar hadislar orqali yanada boyitiladi va tushunarli shaklda bayon qilinadi.
- Beshinchidan, Imom Termiziy tafsir bobida hadislarini tartib bilan joylashtirgan. U Qur'on suralarining ketma-ketligi asosida hadislarini keltirib, oyat va hadis uyg'unligini saqlashga intiladi. Bu esa tafsir bobining manbashunoslik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, Imom Termiziyning tafsir bobida hadislar Qur'on oyatlarini sharhlash, ularning ma'nosini yanada kengroq ochib berish, musulmonlarning diniy-ma'naviy hayotini yo'naltirish va ularda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu jihatlar tafsir bobining o'ziga xosligini belgilab beradi va uni boshqa hadis to'plamlaridan ajratib turadi.

Islom ta'limotida diniy tarbiya insonni to'g'ri e'tiqod, mustahkam iymon, Allohga itoat va ibodatda sobit bo'lishga yo'naltiradi. Qur'oni Karim bu borada asosiy manba hisoblanadi, hadislar esa Qur'on oyatlarini yanada chuqurroq anglash va amaliy hayotda tatbiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Imom Termiziyning "Sunan" asaridagi tafsir bobida keltirilgan hadislar diniy tarbiyaning turli jihatlariga taalluqli bo'lib, ular musulmonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

مَنْ عَرَفَ رَبَّهُ فَقَدْ عَرَفَ نَفْسَهُ

"Kimki Robbini tanisa, o'zini tanidi."²

¹¹ Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. I.

² Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. I.

Ushbu hadis insonning o'zini anglashining asosini Allohni tanishdan boshlanishini ta'kidlaydi. Allohni tanish orqali inson o'zining haqiqiy mohiyatini, maqsadini va vazifasini anglaydi. Ushbu hadis tafsir bobidagi hadislar orqali insonning ma'naviy tarbiyasida Allohni tanishning o'рни va ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Hadislar imon va aqidani mustahkamlashda beqiyos o'rin tutadi. Masalan, Qur'on oyatlarida Allohning yagona Zot ekani va oxirat kuniga imon keltirish haqidagi ta'limotlar hadislar orqali yanada ta'sirchan izohlanadi. Imom Termiziyning tafsir bobida bu masalaga oid rivoyatlar nafaqat aqidaviy tushunchalarni mustahkamlashga, balki musulmon kishining imonini qalban va ruhiy jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi. Ibodat masalalarida diniy tarbiyaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qur'onda namoz, zakot, ro'za, haj kabi amrlar umumiy tarzda bayon qilingan bo'lsa, hadislar bu amallarning qanday ado etilishini, ularning shartlari, farzlari va sunnatlarini batafsil tushuntirib beradi. Termiziy tafsir bobida ham namoz va boshqa ibodatlarga oid oyatlarning tafsiri hadislar orqali izohlangan. Bu esa musulmonlarning ibodatni to'g'ri va mukammal bajarishlariga yo'l ko'rsatadi.

Hadislar taqvo va sabr kabi tushunchalarning tarbiyaviy ahamiyatini yoritadi. Qur'onda sabr qiluvchilar va taqvodorlar madh etilgan bo'lsa, hadislar ularning fazilatlarini aniq misollar bilan ko'rsatib beradi. Masalan, Rasululloh ﷺ ning sabr va shukr borasidagi hadislarini Termiziy tafsir bobida keltirishi musulmonlarning qalbida bu xislatlarning chuqur ildiz otishiga yordam beradi. axloqiy poklik va halollikni targ'ib qiladi. Diniy tarbiyaning muhim jihatlaridan biri – insonni gunoh ishlardan tiyish va pok hayotga undashdir. Qur'on oyatlari bu masalani umumiy tarzda yoritadi, hadislar esa uni amaliy misollar bilan mustahkamlaydi.

Imom Termiziyning tafsir bobida axloqiy jihatlarga oid hadislar ko'plab keltirilgan bo'lib, ular musulmonlarning hayotiy qarashlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Diniy tarbiya jarayonida hadislarning jamiyatdagi totuvlik va birlikni qaror toptirishdagi o'рни ham katta. Qur'on musulmonlarni bir-biriga mehribon bo'lishga, adolatli yashashga va jamoat bo'lib ibodat qilishga da'vat qiladi. Hadislar esa bu da'vatni yanada kengroq izohlab, insonlar orasida qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Termiziy keltirgan hadislar orqali musulmonlar o'zaro hurmat, hamkorlik va do'stlikka chorlanadi. Imom Termiziyning tafsir bobida hadislarning diniy tarbiyadagi o'рни Qur'on oyatlarini anglash va ularga amal qilishni mukammallashtirish, imon va aqidani mustahkamlash, ibodatlarni to'g'ri ado etishga yo'naltirish, shaxsiy va ijtimoiy hayotda halollik va adolatni qaror toptirish hamda musulmonlar orasida birlikni mustahkamlashda yaqqol namoyon bo'ladi³.

Islom ta'limotida ma'naviyat masalasi inson qalbini poklash, ruhiy olamini tozalash va uni yuksak axloqiy qadriyatlarga yo'naltirish bilan chambarchas bog'liqdir.

³ Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniy. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risala, 1996. – J. III.

Qur'oni Karim ma'naviy tarbiyaning umumiy mezonlarini belgilab bergan bo'lsa, hadislar ushbu mezonlarni amaliy hayotda qo'llash, ularni aniq misollar orqali tushuntirish vazifasini bajaradi. Imom Termiziyning "Sunan" asaridagi tafsir bobida keltirilgan hadislar musulmon shaxsining ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Hadislar qalbni poklash va ruhiy poklikni shakllantirishga xizmat qiladi. Qur'on oyatlarida qalbni gunohdan saqlash, Allohni ko'p zikr qilish buyurilgan. Termiziy tafsir bobida keltirgan hadislar orqali zikrning fazilati, qalbni g'aflatdan uyg'otish, insonni Allohga yaqinlashtirish masalalari yanada chuqurroq yoritiladi. Bu esa musulmonlarning qalbiy-ma'naviy olamini boyitadi. Sabr, shukr, tavakkul, taqvo kabi ma'naviy fazilatlarni targ'ib qiladi. Qur'onda sabr qiluvchilarga cheksiz savob berilishi, shukr qiluvchilarni Allohning marhamati kutayotgani zikr etilgan. Termiziy hadislarida esa sabrning turlari, shukrning amaliy ifodalari, tavakkulning hayotiy misollari keltiriladi. Bu ta'limotlar inson ruhiyatini tarbiyalashda, uni sinovlarga bardoshli va iroda jihatdan mustahkam qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hadislar insonning o'z nafsini tiyish va ma'naviy intizomni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Qur'onda nafsga ergashishdan qaytarilgan bo'lsa, hadislar nafsni jilovlash yo'llarini, unga qarshi kurashishning usullarini ochib beradi. Termiziy tafsir bobidagi hadislar insonni ma'naviy intizomga chaqiradi, uning qalbida Allohdan qo'rqish va taqvo tuyg'usini kuchaytiradi. Insoniy munosabatlarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Qur'on bir-birini sevrishga, mehribon bo'lishga, zulm va adolatsizlikdan tiyilishga chaqirgan. Hadislar esa bu masalalarni yanada aniqroq tushuntirib, insonlar orasidagi mehr-oqibat, do'stlik, qardoshlik rishtalarini mustahkamlaydi. Termiziy keltirgan hadislar orqali insonning jamiyatdagi o'rni, uning boshqa insonlar oldidagi mas'uliyati yoritiladi.

Hadislar yoshlar tarbiyasida ma'naviy kamolotni ta'minlaydi. Qur'on ta'limotida ota-ona huquqi, ilm olishning fazilati, yoshlik davrini pok o'tkazish haqida oyatlar mavjud. Termiziy hadislarida esa ilm talab qilishning farzligi, ota-onaga itoat qilishning ulug'ligi, yoshlikni ibodat va ilm bilan bezashning fazilatlari keltiriladi. Bu hadislar yoshlarning qalbida ma'naviy yuksalishga intilish tuyg'usini uyg'otadi. Xulosa qilib aytganda, Imom Termiziyning tafsir bobida hadislarining ma'naviy tarbiyadagi ahamiyati juda kengdir. Ular inson qalbini poklash, ruhiy olamni yuksaltirish, sabr va shukr kabi fazilatlarni singdirish, nafsni jilovlash, jamiyatda mehr-oqibat va totuvlikni qaror toptirish hamda yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Hadislarning bunday ta'siri ularning Qur'on ta'limotiga uyg'un holda musulmon shaxsining ruhiy-ma'naviy kamolotida asosiy yo'nalishlardan biri ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Muhokama

Imom Termiziyning “Sunan” asaridagi tafsir bobida keltirilgan hadislar nafaqat Qur'on oyatlarining mazmunini ochib berish, balki ularning musulmon ummatining hayotida diniy-ma'naviy ahamiyatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Ushbu hadislar orqali musulmonlarning e'tiqodi mustahkamlanadi, axloqiy qadriyatlari boyiydi va jamiyatda totuvlik, hamjihatlik qaror topadi.

Tafsir bobida keltirilgan hadislarning bugungi davrdagi diniy-ma'naviy tarbiyaga tatbiqi alohida e'tibor talab qiladi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy muammolarning ko'pligi, ma'naviy inqirozlar, yoshlar ongiga salbiy oqimlarning kirib kelishi sharoitida hadislarning tarbiyaviy kuchi yanada dolzarbdir. Imom Termiziyning tafsir bobida keltirilgan hadislar aynan shaxsiy e'tiqod, axloqiy poklik, sabr-toqat, adolat, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni shakllantirish orqali bu muammolarga yechim bo'la oladi⁴.

الصَّبْرُ نِصْفُ الْإِيمَانِ

“Sabrlik iymonning yarmidir.”

Ushbu hadis insonning sabr-toqatini, uning iymonining mustahkamligini ko'rsatadi. Tafsir bobida, masalan, “Baqara” surasidagi “Sabr qilganlarga jannat beriladi” oyati orqali sabrning ahamiyati va uning mukofoti ta'kidlanadi. Ushbu hadis tafsir bobidagi hadislar orqali sabrning diniy-ma'naviy tarbiyadagi o'rnini va uning iymon bilan bog'liqligini ko'rsatib beradi. Hadislarning zamonaviy ijtimoiy hayotda qo'llanishi ularning universalligini ko'rsatadi. Masalan, Qur'onda zikr etilgan sabr, taqvo, halollik haqidagi oyatlar tafsir bobidagi hadislar bilan izohlangan bo'lib, ular bugungi kunda ham shaxsiy hayotda, oilada va jamiyatda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugungi yoshlar uchun ilm talab qilish, ota-onaga hurmat, jamiyatda mehr-muhabbatni mustahkamlash haqida keltirilgan hadislar ularga yo'l-yo'riq bo'lishi mumkin.

Qur'on oyatlari va hadislar uyg'unligida shakllangan tarbiyaviy tamoyillar insoniyat uchun umumbashariy ahamiyatga ega. Termiziyning tafsir bobida hadislar Qur'on oyatlarini yanada ochib berib, insonni faqat diniy emas, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham tarbiyalaydi. Bu jihatdan qaraganda, hadislar nafaqat musulmon ummati, balki barcha insoniyat uchun tinchlik, adolat va axloqiy barkamollik yo'lida muhim o'gitlar beradi.

Hadislarning tarbiyaviy ta'siri ularning amaliy hayotda qo'llanishi bilan belgilanadi. Masalan, Qur'on oyatlarida jamiyatda adolat qaror topishi haqida ko'rsatmalar berilgan. Termiziyning tafsir bobida keltirilgan hadislar esa bu adolatning qanday amalga oshirilishini ko'rsatib beradi. Natijada, hadislar Qur'on ta'limotining amaliy tatbiqida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

⁴ Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a'laamin nubala. – Bayrut, Muassasatur risala, 1993. J. 18. – B. 513

Imom Termiziyni tafsir bobida hadislarining diniy-ma'naviy tarbiyadagi o'rni nafaqat tarixiy, balki hozirgi davr uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Bu hadislar orqali Qur'onning abadiy qadriyatlari yanada aniqroq talqin etiladi, ularning hayotiylik va amaliy yo'naltiruvchanligi namoyon bo'ladi. Imom Termiziy "Sunan" asarining tafsir bobida Qur'oni Karim oyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'plab hadislar keltiradi. Ushbu hadislar oyatlarning ma'nosini yanada kengroq sharhlab berish bilan birga, musulmon insonining e'tiqodi, axloqi va ma'naviy kamolotiga ham xizmat qiladi⁵.

Tafsir bobidagi hadislar, avvalo, Qur'on oyatlarining to'g'ri tushunilishi va ularning musulmon kishining e'tiqodida mustahkam o'rin egallashiga yordam beradi. Masalan, "Ixlos" surasiga oid hadislar Allohning yagona va beqiyos ekanini, bandalarning esa Unga ixlos bilan ibodat qilishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu hadislar kishining iymonini mustahkamlaydi, shirk va bid'atlardan uzoqlashishga undaydi. Tafsir bobida keltirilgan hadislar katta qismi axloqiy tarbiyani mustahkamlashga qaratilgan. Masalan, "Hujurot" surasi tafsirida hadislar musulmonlarni bir-biriga hurmatda bo'lish, g'iybat va tuhmatdan saqlanish, adolatli bo'lishga da'vat qiladi. Bu esa jamiyatda totuvlik va insoniylik qadriyatlarini shakllantiradi⁶.

Qur'oni Karimning ko'plab oyatlarida sabr fazilati ulug'langan. Termiziyni tafsir bobidagi hadislar ham sabrning iymondagi o'rni, qiyinchiliklarga chidashning savobi haqida bayon qiladi. Bu hadislar musulmonlarni hayot sinovlariga toqatli bo'lishga, shukr va sabr bilan yashashga o'rgatadi. Tafsir bobidagi hadislar musulmonlarni mehribonlik va boshqalarga yordam qo'lini cho'zishga da'vat etadi. Masalan, Qur'onda ota-onaga ehtirom, yetim-yesirlarga g'amxo'rlik qilish buyurilgan oyatlar tafsirida keltirilgan hadislar bu masalaning diniy-ma'naviy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Termiziyni tafsir bobida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hadislar ham bor. Ular musulmonlarni bir-biriga zulm qilmaslik, adolatli bo'lish, tinchlikni asrashga chaqiradi. Shunday qilib, tafsir bobidagi hadislar diniy ta'lim bilan bir qatorda ijtimoiy-ma'naviy hayotning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Imom Termiziyni tafsir bobidagi hadislar yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, ularda ma'naviy immunitetni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Ular yosh avlodga halollik, diyonat, sabr, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi fazilatlarni singdiradi. Shu bois, tafsir bobidagi hadislar ta'lim jarayonida, xususan, diniy va ma'naviy tarbiya tizimida keng qo'llash muhim hisoblanadi.

Xulosa

⁵ Shamsiddin Muhammad Zahabiy. Kitob Tazkirat al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.

⁶ Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risala, 1996. – J. III.

Imom Termiziyning “Sunan” asaridagi tafsir bobida keltirilgan hadislarining diniy-ma'naviy tarbiyadagi o'rnini atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tafsir bobida hadislar nafaqat Qur'oni Karim oyatlarini sharhlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish vositasi, balki musulmon shaxsining ruhiy-ma'naviy kamolotida ham asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Imom Termiziy tafsir bobida hadislarini tanlashda ularning isnod va matn jihatidan ishonchlilikiga alohida e'tibor bergan. Sahih va hasan darajasidagi hadislarini keltirish orqali u Qur'on oyatlarini amaliy va axloqiy jihatdan tushuntirib beradi. Shu bilan birga, hadislarini tartib bilan joylashtirish, ularning mavzular bo'yicha izchil keltirilishi tafsir bobining ilmiy-uslubiy xususiyatini yanada mustahkamlaydi. Bu jihatlar Termiziy tafsir bobini boshqa hadis to'plamlaridan ajratib turadi va uni manbashunoslik nuqtai nazaridan qimmatli qiladi.

Hadislarining diniy tarbiyadagi ahamiyati beqiyosdir. Tafsir bobidagi rivoyatlar imon va aqidani mustahkamlash, ibodatlarini to'g'ri va mukammal bajarishga yo'naltirish, sabr, shukr, adolat, halollik, mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular musulmon shaxsini jamiyatda mas'uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk inson sifatida tarbiyalashga ham yordam beradi. Termiziy keltirgan hadislar Qur'on ta'limotini yanada jonli va amaliy qiladi, shaxsning ruhiy olamini boyitadi, ijtimoiy hayotda totuvlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan, hadislar inson qalbini poklash, ruhiy intizomni shakllantirish, sabr-toqatni rivojlantirish, Allohga tavakkul qilish va ma'naviy kamolotga yetaklashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi⁷.

Tafsir bobida keltirilgan hadislar yoshlar tarbiyasida ham alohida ahamiyatga ega. Ular yosh avlodni imonli, axloqiy jihatdan pok, jamiyatga foydali va ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishlariga ko'mak beradi. Shuningdek, hadislarining bugungi zamonda ham diniy-ma'naviy tarbiyada dolzarb ekanligi ta'kidlanadi. Zamonaviy jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy va ma'naviy muammolarni hal qilishda tafsir bobidagi hadislar nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki amaliy yechim sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Bu hadislar insonni faqat diniy qoidalar bilan chegaralab qo'ymaydi, balki uning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Imom Termiziyning tafsir bobida keltirilgan hadislar Qur'on oyatlarini tushuntirish, musulmon shaxsining diniy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasini shakllantirish, jamiyatda adolat va totuvlikni mustahkamlash hamda yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol yetuk insonlar qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu jihatlar Termiziy tafsir bobini nafaqat tarixiy, balki bugungi kunda ham dolzarb ilmiy manba sifatida qadrlanishini ta'kidlaydi. Shunday qilib, tafsir

⁷ Akram Ziyoy Umariy. Turot at-Termiziy al-'ailmiy. Maktaba ad-daar bil Madiynati al-munavvara, 2012.

bobidagi hadislar musulmonlarning hayotida yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiluvchi, e'tiqod va axloqni mustahkamlovchi, shaxs va jamiyatning ma'naviy rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi manba ekanini isbotlaydi. Ularning diniy-ma'naviy tarbiyadagi o'rni bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va ilmiy hamda amaliy jihatdan chuqur o'rganishga loyiqdir.